

Shonazarova Hulkaroy Bunyod qizi

*O’zbekiston Respublikasi Xorazm viloyati Yangiariq tumanidagi ixtisoslashtirilgan maktab
o’quvchisi
Xorazm, O’zbekiston*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o’zbek tilidagi turg‘un o’xshatishlarning til birligi sifatidagi ahamiyati hamda xalq og‘zaki ijodi namunalarida, jumladan, topishmoqlarda qo‘llanilishining lингistik jihatlari haqida so‘z boradi. Unda o’xshatishni tashkil etuvchi komponentlar, turlari va topishmoqlar yaratilishidagi ahamiyati keng yoritilgan.

Kalit so‘zlar: turg‘un o’xshatishlar, erkin o’xshatishlar, frazeologik birliklar, madaniy konnotatsiya, til va madaniyat, topishmoqlar, konseptual tizim.

Metaforalar, frazeologik birliklar va o’xshatishlar xalq madaniyatini va o’ziga xosligini ko‘rsatib beruvchi vositalardir. Metaforalar, frazeologik birliklar va o’xshatishlar mazmuni va o’ziga biriktirilgan madaniy konnotatsiyalariga ko‘ra madaniy belgilarning eksponentlariga aylanadilar. O’xshatishlarni ushbu nuqtayi nazardan ko‘rib chiqamiz.

Metaforalarga juda yaqin bir vosita o’xshatishlar bo‘lib, ular yordamida shaxs-predmetlar, narsa, belgi va harakat kabilalar bir-biriga o’xhatiladi, qiyos qilinadi. O’xshatishni hosil qiluvchi leksik vositalar: kabi, misli, o’xshar, o’xhash, xuddi, go‘yo, yanglig‘, singari; grammatik vositalar: -dek, -day qo‘srimchalari hisoblanadi. Masalan: Bahor kelinchakdek yasanib keldi.

Dunyonи bilishda qiyoslash nihoyatda muhim o’rin tutadi. Inson tafakkuri bilishning ko‘plab usullari, uslub va shakllarini qamrab olgan murakkab bilish jarayonidir. Inson tafakkur yuritishi jarayonida ilmiy bilishning barcha sohalari va istagan bosqichida foydalaniladigan umumiyyat va gnoseologik operatsiyalar tafakkur va ilmiy bilish usullari hisoblanadi. Ana shunday ilmiy bilish usullaridan biri qiyoslashga asoslangan analogiyadir. Analogiyada obyektlarning ba’zi belgilari, xossalari va munosabatlardagi o’xshashlikdan, ularni boshqa narsa yoki munosabatlarga o’xshashligi to‘g‘risidagi fikr ilgari suriladi.

An’anaviy topishmoqlarda tabiat, tabiat hodisalari va narsalari, umuman, har xil obyektlarga poetik tus berilgan holda obrazlashtirish – taqqoslash, o’xshatish orqali jumboqlanadi. Undagi o’xhatilgan, taqqoslangan narsaning o’xhatmasi, taqqoslanmasini topish uchun ko‘p o‘ylash, tinimsiz fikr yuritish orqali muayyan belgilarni aniqlashga, qidirishga to‘g‘ri keladi va bu ayniqlsa, yosh kitobxonlarning aqlini charxlab, mantiqiy fikrlashga o’rgatadi. Buni bilgan dono xalqimiz o’xshatishlar asosida yaratilgan topishmoqlarga alohida urg‘u berishgan va shunday topishmoqlarni yaratishgan. Mutaxassislarimiz o’xshatish-qiyoslashning maqsadidan kelib chiqib, uning ikki turini farqlashadi. Agar ikki predmet yoki tushunchalar o‘rtasidagi farqni ko‘rsatish maqsadida qiyoslangan bo‘lsa, sof qiyosiy konstruksiya shakllanadi (masalan, yer toshdan qattiq), qiyoslash o’xshatish maqsadini ko‘zda tutganda esa o’xshatish konstruksiyasi shakllanadi (masalan, yer toshday qattiq). Xalq topishmoqlarida qiyoslashning har ikki turidan keng

foydalanolgan. Sof qiyosiy konstruksiya: *Sutdan tiniq, paxtadan oq.* – Qor; *Qarichdan yaqin, osmondan uzoq.* – Ko‘z; *O‘zi keng, dengizdan chuqur.* – Fikr; *Osmondan buyuk.* – Maqsad; *Asaldan shirin, zahardan achchiq.* – So‘z gap.

O‘xshatish konstruksiyasi: *O‘zi yo‘qdek, tovushi o‘qdek.* –Chigirtka; *Qorday oppoq, yungday yumshoq.* – Paxta; *Ichi qora ko‘mirday, tishi sariq isparakday.* – Somavar;

O‘xshatishlar o‘ziga xos obrazli tafakkur tarzining mahsulidir va ular nutqning emotisionalligini, ifodaliligi va ta’sirchanligini ta’minlashga xizmat qiladi. O‘zbek tilida ham o‘xshatishlar boshqa tillarda bo‘lgani kabi to‘rt unsurdan tarkib topadi va ular o‘xshatish subyekti, o‘xshatish etaloni, o‘xshatish asosi va o‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichi deb nomlanadi. Masalan, “bahor kelinchakdek yasanib keldi” o‘xshatishini oladigan bo‘lsak, bahor – o‘xshatish subyekti, kelinchak – o‘xshatish etaloni, yasanib kelishi – o‘xshatish asosi va –dek qo‘srimchasi – o‘xshatishning shakliy ko‘rsatkichidir. Topishmoqlardagi o‘xshatishlar boshqa janrlardagi o‘xshatishlardan farq qilib, ularda o‘xshatish subyekti ifodalanmaydi, jumboqlanadi. O‘xshatish etaloni hamda o‘xshatish asosi orqali o‘xshatish subyektiga ishora qilinadi. Masalan, *qorday oppoq, yungday yumshoq.* – Paxta; Bu yerda paxta – o‘xshatish subyekti, qor –o‘xshatish etaloni, yumshoqlik belgisi esa o‘xshatishga asos bo‘lgan.

O‘xshatishlarning yana ikki turi, ya’ni: 1) individual-muallif o‘xshatishlari yoki erkin o‘xshatishlar va 2) umumxalq yoki turg‘un (doimiy) o‘xshatishlar farqlanadi. Turg‘un o‘xshatishlarda o‘xshatish etaloni alohida ahamiyatga molikdir. Aynan o‘xshatish etalonida xalqning milliy-madaniy dunyoqarashi o‘z ifodasini topadi. Xalq topishmoqlarida asosan turg‘un o‘xshatishlardan foydalanolgan bo‘lsada, erkin o‘xshatishlar ham mavjud. Masalan, *Shoxlari bor qo‘chqordek, bo‘yi misli daraxtdek.* –Kiyik; Bu topishmoqda qo‘chqordek, daraxtdek o‘xshatishlari erkin o‘xshatish sanaladi. Qo‘chqordek o‘xshatishini xalqimiz orasida pahlavon, botir ma’nolarida o‘g‘il farzandga nisbatan qo’llash turg‘un o‘xshatishga aylanishiga asos bo‘lgan. Ammo yuqoridaq topishmoqda kiyikning qo‘chqorga o‘xshatishda pahlavonligi emas, tashqi jihatdan o‘xshashligi, ya’ni shoxlarining borligi asos qilib olingan.

Xalq topishmoqlarida g‘oyatda xilma-xil original o‘xshatishlar yaratilgan bo‘lib, ular betakrorligi bilan kitobxonni o‘ziga jalb qiladi. Masalan: *O‘tirishi o‘ymoqday, baqirishi toyloqday.* –Chigirtka; Bu topishmoqda chigirtka tashqi jihatdan o‘ymoq (angishvona)ga o‘xshatilgani holda ovozi toyloq (ikki yashar tuya)ga qiyoslanadi. Bunday bir-biriga zid bo‘lgan qiyosning qo’llanilishi topishmoqning mazmun-mundarijasini boyitib, kitobxonni yanada ko‘proq mulohaza qilishga chorlaydi.

Yoki: *Ichi undayin, tashi qondayin, o‘tirishi Abdullaxondayin.* – Jiyda; Bu topishmoqlarda ham boshqa hech qaysi janrda uchramaydigan o‘ziga xos o‘xshatishlar qo’llangan. Jiydaning belgi-xususiyatlari keltirilib, “*o‘tirishi Abdullaxondayin*” o‘xshatishi qo’llangan. Jiyda mevasiga nisbatan aynan bunday o‘xshatishning qo’llanilishiga mevaning xalq tabobatida g‘oyat foydali, ko‘pgina kasalliklarda davo sifatida qo’llanuvchi dorivor mevaligi va shu sababli xonday izzat-hurmat qilinishi asos qilib olinganligi ehtimoldan holi emas. Bundan tashqari xalq orasida jiyda mevasi bilan bog‘liq diniy rivoyatlar ham mavjud bo‘lib, ularda jiyda mevasi po‘stining qizilligi payg‘ambarimizning kofirlar bilan qilgan janglarda to‘kkan muqaddas qonlari ramzi ekanligi ta’kidlanadi. Shuning uchun ham bu mevani xalqimiz

qadimdan qadrlab, shifobaxsh noyob o'simliklar qatorida ko'rishgan va bu tasavvurlarini ushbu topishmoqda yoritgan bo'lishlari ehtimoldan holi emas.

Tilni lingvokulturologik tadqiq etishda turg'un o'xshatishlarning ahamiyati beqiyosdir. Xalq topishmoqlarida juda ko'plab turg'un o'xshatishlarni uchratamiz. Masalan: *To'rtida tariqday, o'ttizida ayiqday, to'qsonida tovuqday. – Odam – bolaligi, yigitligi, keksaligi;*

Bu topishmoqda odamning bolaligi "tariqday", yigitligi "ayiqday", keksaligi "tovuqday" o'xshatishlari orqali jumboqlanyapti. Bu o'xshatishlar xalq orasida ommalashib turg'un o'xshatishlarga aylanib ulgurgan. Xullas, turg'un o'xshatishlarni lingvistik jihatdan o'rganish xalq tafakkuri, fikrlash tarzi va madaniyati haqida juda qiziq ma'lumotlarni beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Аристотель. Поэтика. – Л., 1927. С.39.
2. Babanazarova S.A. O'xshatishlarda olamning lisoniy konseptuallashtirilishi. Filol.fan.nomz. ...diss. – Urganch, 2023.
3. Husainova Z. Topishmoqlar. – Toshkent: G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981;
4. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab. // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2012. №5. B.3-16.
5. Mahmudov N. O'xshatishlar va milliy obraz. // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2012. №1. B.3-8.
6. Qobuljonova G. Metaforaning sistemaviy-lisoniy xususiyatlari. Filol.fan.nomz. ... avtoref. –Toshkent, 2000. -7 b.